



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHARAOITIDA PARRANDALARNING SAQLASH USULLARINI MAHSULDORLIGIGA TA'SIRI

Alimbaev B., Oraqbaeva B.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu tarmoq mamlakatimiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining esa xom ashyoga bo'lgan talabini qondirish bilan birga, eksport salohiyatini mustahkamlashning istiqbolli manbalaridan biri sanaladi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalasi respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim ustivor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligini islox qilish bo'yicha juda o'lgan va arzigulik ishlar amalga oshirildi. Ishlab chiqarishga yangi texnika va ilg'or texnologiyalarni joriy etish ishlari yildan yilga jadallashib, cheklangan er va suv resurslaridan, kapitaldan va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi yuksalmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 noyabrdagi PQ-4015-sonli "Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida keltirilganidek mamlakatimizda parrandachilik sohasini rivojlantirish va eksportga mo'ljallangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek aholini mahalliy ishlab chiqarilgan sifatli va arzon parrandachilik mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Dehqon, fermer, shaxsiy yordamchi, kichik biznes xo'jaliklari sharoitida parrandalarning hayotchanligi, tuxum mahsuldorligi va iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Tovuqlarning saqlanuvchanligi, o'sish va rivojlanishi, balog'at yoshi, tovuqlarning tuxum mahsuldorligi va tuxum sifati o'rganiladi. Kichik tadbirkor xo'jaliklarida va fermer xo'jaliklari sharoitida saqlash usullari, parrandalarni xo'jalikda yetishtirilgan ozuqalar asosida to'laqimmatli oziqlantirishni tashkil qilish, ekologik toza tuxum yetishtirish, tadqiqotning iqtisodiy samaradorligini aniqlash evaziga ishlab chiqarishga ma'qul parrandalarni urchitishni tavsiya etish.

1-jadval

Parrandaxonalarda mikroiklim ko'rsatkichlari

Parranda turi va yoshi	Havoning harorati °S		Nisbiy namligi, %	Havo harakati, m/sek	CHang miq-dori, mg/m	Zararli gazlar miqdori	
	Polda	Katakda				Karbonat angidrid %	Ammiak mg/m³
Katta yoshdagilar:							
Tovuq	12 - 16	20 - 18	60 - 70	0,3 - 0,6	5 - 8	0,15- 0,20	10,0
Jo’jalar yoshi, kun							
1 - 30	31 - 24	20 - 18	60 - 70	0,2 - 0,5	2 - 5	0,2	10,0
31 - 60	18 - 16	18 - 16	60 - 70	0,2 - 0,5	2 - 5	0,2	10,0
61 - 70	16 - 14	16 - 14	60 - 70	0,2 - 0,5	2 - 5	0,2	10,0
71 - 150	16 - 14	37 - 35	60 - 70	0,2 - 0,5	2 - 5	0,2	10,0

1- jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatdiki. Hamma yoshdagi parrandalar saqlanadigan parrandaxona-larda yoz paytlarida havoning harorati + 30⁰S dan oshmasligi, nisbiy namlik esa ba'zan tovuqlar uchun 75 %, gacha bo'lishi mumkii. Yarim ochiq binolarda mikroiklim ko'rsatkichlari me'yorga keltirilmaydi.

Xulosa. Tovuqlarning saqlanuvchanligini saqlash, parvarishlash jarayonlarida belgilangan me'yorlarda shart-sharoitlar yaratilib, barcha veterinariya, zootexniya qoidalariga rioya qilish zarur. Bu esa galadagi tovuqlarni saqlanuvchanligini oshirish yo'llaridan biri xisoblanadi. Ko'p hollarda yuqorida ko'rsatilgan omillarni buzilishi natijasida tovuqlarning mahsuldorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Imomov SH., K.Usmonov. Parranda chiqindilariga ishlov berish. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi - 2015 - № 8 - 35 bet.
2. Rahmonov L.K. Parrandalarni asrash va oziqlantirish texnologiyasining o'ziga xosliklari. // Zooveterinariya, 2012. №2, 32-34 b
3. Hamroqulov B. Parrandachilikda tuxum ishlab chiqarish samaradorligini oshirish. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2012. №2.
4. Клетикова Л. Изменение белково-минерального обмена в организме птицы. // Птицеводство, 2009, № 7, с. 29-30.
5. Мадрахимов, Ш. Н. (2024). Сут-гўшт йўналишидаги қорамол зотлар маҳсулдорлигини оширишнинг селекцион-технологик асаслари. *Автореферат. Қишлоқ хўжалиги фанлари доктори*, 72.
6. Мадрахимов, Ш. Н., & Рузибоев, Н. Р. (2022). Саноат асосида чатиштиришдан олинган F1 дурагай авлодларининг усиш курсаткичлари. Ж. "Chorvachilik va naslchilik ishi", 4, 26.
7. Мамадуллаев, Г., Мадрахимов, Ш., Бойбулов, Б., & Амиров, Ш. (2023). СПРАВОЧНЫЕ показатели крови лошадей карабаирской породы. in Library, 4(4), 34-36.
8. Madrahimov, S. N. (2023). The effect of feeding on the expression of the hereditary opportunities of monbelyard bulis belonging to different genotypes.
9. Madrahimov, S., & Roziboev, N. (2023). Growth and development of F1 hybrid progenies of Schwitz cows using beef breeds. In E3S Web of Conferences (Vol. 371, p. 01003). EDP Sciences.
10. Шакарбоев, Э. Б., Азимов, Д. А., Голованов, В. И., Кузнецов, Д. Н., Урымбетов, А. А., & Каниязов, А. Ж. (2017). Гельминты лошадей Узбекистана. *Ветеринария*, (5), 29-32.
11. Урымбетов, А. А. (2019). Репродуктивный потенциал каракульских овец сур каракалпакского породного типа в зависимости от условий содержания на северо-западе Кызылкумов. *Экологический Вестник Северного Кавказа*, 15(4), 91-93.
12. Урымбетов, А. А., & Бобокулов, Н. А. (2024). Молочность каракульских овец окраски сур каракалпакского породного типа. *Овцы, козы, шерстяное дело*, (1), 24-26.
13. Шакарбоев, Е., Сафарова, Ф., Азимов, Д., и Урымбетов, А. (2015). ФАУНА, ЭКОЛОГИЯ И ТАКСОНОМИЯ РЫБ-ГЕЛЬМИНОВ ИЗ ОТДЕЛЕНИЯ «КАРИООБРАЗНЫЕ» В УЗБЕКИСТАНЕ. *Журнал микробиологии, биотехнологии и пищевых наук*, 5 (1), 88.
14. Кислая, А. М. ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА РЕСПУБЛИКИ БЕЛАРУСЬ В СФЕРЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ. РАЗДЕЛ 6.

15. Bobokulov, N., Khatamov, A., Abduzoirova, D., Yusupov, A., Urimbetov, A., & Olmasov, B. (2021). Meat productivity of sheep in Uzbekistan and its relationship with different factors. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 258, p. 04020). EDP Sciences.

ASALNING KIMYOVIY TARKIBI VA INSON SALOMATLIGIDAGI AHAMIYATI

Aminova Sh.F., Abdurahimova M.J., Abdusattarova M.O.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

Kirish. Asalarichilik — qadimdan insoniyat hayotida muhim o'rin tutgan tarmoqlardan biridir. Asal inson tomonidan iste'mol qilinadigan eng qadimiy tabiiy mahsulotlardan bo'lib, u nafaqat oziq-ovqat, balki dorivor vosita sifatida ham qadrlanadi. Asalning tarkibida turli xil shakarlar, vitaminlar, organik kislotalar, fermentlar va mikroelementlar mavjud bo'lib, ular inson organizmiga foydali ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda biologik faol moddalarga boy bo'lgan tabiiy mahsulotlarga bo'lgan talab ortib borayotgan bir davrda asalning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Inson salomatligini mustahkamlash, immunitetni oshirish, yurak-qon tomir tizimi faoliyatini yaxshilashda asalning o'rni beqiyosdir. Shuningdek, asalning tarkibiy qismlari energiya manbai sifatida ham muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonning turli hududlarida, jumladan Qashqadaryo viloyati sharoitida ham asalarichilik sohasi keng rivojlanib bormoqda. Asalning sifatini saqlash, tabiiyligini aniqlash va uni to'g'ri ishlov berish texnologiyasi fan-texnika taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli, asalning kimyoviy tarkibi va inson salomatligidagi ahamiyatini ilmiy asosda o'rganish zamonaviy asalarichilikning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Asal — bu asalarilar tomonidan o'simliklarning nektaridan yoki o'simlik shirasidan ishlab chiqariladigan murakkab tabiiy mahsulotdir. U asosan karbonli birikmalar, suv, organik kislotalar, fermentlar, mineral modda va vitaminlardan tashkil topgan.

1. Asalning kimyoviy tarkibi. Asal tarkibida o'rtacha 80–82% uglevodlar, 15–18% suv, 0,3–1,0% oqsil va aminokislotalar, hamda turli mineral elementlar mavjud. Asalning eng muhim qismini fruktoza (levuloza) va glyukoza (dekstroza) tashkil etadi. Ushbu shakarlar inson organizmida tez so'riladi va energiya manbai bo'lib xizmat qiladi.

Asal tarkibida, shuningdek, saxaroza, maltosa, melitsoza kabi murakkab shakarlarga ham uchrash mumkin. Bu moddalarning nisbati asalning kelib chiqishiga (nektarli yoki shirasimon), asalarining turi va o'simlik manbaiga bog'liq.

Asal tarkibidagi organik kislotalar (asal kislotasi, limon kislotasi, sut kislotasi) unga o'ziga xos ta'm va hid beradi. Bu kislotalar modda almashinuvini yaxshilaydi hamda hazm tizimi faoliyatini faollashtiradi.

Mineral moddalardan esa kaliy, natriy, kaltsiy, magniy, temir, marganes, fosfor, rux, mis kabi elementlar mavjud. Ular asosan qon aylanishi, yurak faoliyati, suyak to'qimalarining mustahkamligi va hujayra almashinuv jarayonlarida ishtirok etadi.

2. Vitaminlar va fermentlar

Asal tarkibida B guruhi vitaminlari (B1, B2, B3, B6), C vitamini, karotin (A provitamini) va folat kislotasi (B9) mavjud. Bu vitaminlar asab tizimi, yurak faoliyati, jigar va buyraklarning sog'lom ishlashini ta'minlaydi.